

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PHD.03/30.01.2020.PED.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIMOVA NOZIMA RAJABBOYEVNA**

**NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILI FANINI  
O‘QITISHDA TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH  
TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

UDK 378.147.091.31-059.1:[378.016:811.111]

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Alimova Nozima Rajabboyevna**

Nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni  
individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish..... 3

**Алимова Нозима Раджаббоевна**

Совершенствование технологий индивидуализации образования при  
обучении английскому языку студентов-нефилологического направления.... 21

**Alimova Nozima Rajabboevna**

Improving the technologies of individualization of education in teaching English to  
non-philological students ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of publications ..... 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PHD.03/30.01.2020.PED.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIMOVA NOZIMA RAJABBOYEVNA**

**NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILI FANINI  
O‘QITISHDA TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH  
TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № V2020.1.PhD/Ped1236 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Olimov Shirinboy Sharofovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Taylanova Shoxida Zayniyevna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Begmatova Dilnoza Muxtorovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: +99866239-12-29, faks: +998366239-17-14, e-mail: (samdu\_ped\_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: +99866 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**X.I.Ibraimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sh.R.Urakov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, falsafa doktori (PhD) ped.f.b.

**N.Sh.Shodiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda chet tilini o'qitish lingvistik bilimlarni o'zlashtirish va talabalar o'rtasida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, talabaning shaxsini rivojlantirish va uning umumiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda oliy ta'limda ulkan o'zgarishlar ro'y berib, ular ta'lim jarayonining deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini qo'llab chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratish, talabalarni ilmiy-nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish jarayonida, ularda o'z kasbiga bo'lgan qiziqish, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalarni ham takomillashtirishni amalga oshirish muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa sanaladi.

Dunyo miqyosida nufuzli oliy ta'lim muassasalarida nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonida chet tilini o'rganishga motivatsiya yetishmasligi chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash, o'qitishning yangi usullari va shakllaridan foydalanish, talabalarning ingliz tilidan kommunikativ bilimlarini rivojlantirish, nutq ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, kasbiy faoliyatga tayyorlash va ta'limni individuallashtirish, oliy ta'limda ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalari, individual xarakteri va o'rganish strategiyalarini hisobga olib o'qitish, chet tilini madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o'qitish muammolariga bag'ishlangan tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega. shuning bilan birgalikda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari ingliz tilini o'qitishda individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz"<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi<sup>2</sup>da "Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada nofilologik ta'lim yo'nalishida talabalarning bilim ko'nikmalarini differensiyasiyalash orqali ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirishni ilmiy asoslash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 24-dekabridagi PQ-61-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Akademiklar va ilm-fan ziyolilari bilan 2016 yil dekabr oyida o'tkazgan uchrashuvdagi nutqi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son Farmoni.

“Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda yosh mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va ta‘limni individuallashtirish muammolari O.R.Roziqov, A.Q.G‘ulomov, B.R.Adizov, M.H.Maxmudov, M.M.Maxmudova, Z.K.Ismoilova, Ye.Seytxalilov, Sh.E.Qurbanov, A.R.Xodjabaev, R.H.Jo‘raev, Sh.S.Sharipov, R.D.Shodiev, N.A.Muslimov, F.R.Yuzlikaev, U.I.Maxkamov, X.I.Ibragimov, N.Sh. Shodiev, O.X.To‘raqulov, M.B.Urazova, J.A.Hamidov, D.O.Himmataliev va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha J.J.Jalolov, M.Djusupov, G.T.Mahkamova, T.K.Sattorov, L.T.Ahmedova, D.U.Hoshimova, V.I.Andriyanova, F.M.Rashidovalarning ishlari mavjud.

Ingliz tilini o‘qitish metodikasi masalalari bo‘yicha B.G.Kulmatov, I.M.To‘xtasinov, F.Alimov, G‘.Tadjibaev, G.Sobirova, D.Tadjibaeva, Sh.Akbarova, M.Muxitdinova, G.Azizova kabilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Ta‘lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g‘oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko‘rsatmalari bo‘yicha bir qator o‘zbek olimlar, jumladan, U.Sh.Begimqulov, O.Musurmonova, M.S.Mustafaeva, R.Sh.Axliddinov, Yu.N.Abdullaev, M.X.Mahmudov, R.Ishmuhammedov, L.V.Golish kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlarida biz ko‘tarib chiqayotgan ta‘lim sifatini takomillashtirishdagi muammolar, usul va vositalarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, ta‘limni ijodiy tashkil etish, oliy ta‘limni takomillashtirish, ta‘limni individuallashtirish va boshqa xususiyatlar bo‘yicha izlanishlar olib borgan.

MDH davlatlarida T.M.Strucheva, Ye.G.Ivanova, N.V.Akinina, Ye.I.Tarasova, V.V.Levchenko, V.B.Ramazanovalarning ilmiy ishlari va metodik qo‘llanmalari ham o‘rganilgan.

Xorij mamlakatlarida Rod Bolitho, Claudia Ferradas, Tim Mc.Namara, M.B.Chelbyskova, A.D.Cohen, V.S.Avanesov, Palmer, A.A.Krasnoborova, A.Hughes, Adrian S.G. Lyle F.Bachman, Christian Coombe, Andrew Harrison, John W.Oller kabilarning tadqiqotlarida ingliz tili fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarda ingliz tili fanini o‘qitishda ta‘limni individuallashtirishni tashkil qilish bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilgan. Chet tillarni kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish masalalari J.Xarmer, J.Richard,

D.Nunan, J.Rodgers, X.Vidovsin, A.Doff, S.Kanale, M.Sueyn, S.Savingnon, X.G.Viddouson, G.Rikxayt, X.Strouner, L.Xayms, B.Vayt, I.Luka, K.Kneplar tomonidan o'rganilgan.

Ammo, nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish, pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish hamda ilmiy-nazariy asoslash masalalari ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'quvchilarning o'quv-biluv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan vaziyatlarni loyihalash mexanizmlari" (2017-2021 y.y.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari va zamonaviy texnologiyalarini aniqlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

falsafiy, psixologik, ilmiy-pedagogik, sotsiologik, uslubiy adabiyotlar tahlili asosida nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning shart-sharoitlari va amaliyotdagi holatini o'rganish;

ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarining rivojlantiruvchi omillari va pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish;

oliy ta'limda ingliz tili fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talabalarning amaliy tajribasini shakllantirish uchun ta'limni individuallashtirishning tamoyillarini ishlab chiqish;

ingliz tili fanini o'qitishning innovatsion metodlarini e'tiborga olgan holda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini amaliyotga yo'naltirishni takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida oliy ta'lim muassasalari nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlariga Buxoro, Samarqand, Termiz davlat universitetlaridan 442 nafar respondent talabalar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta'lim muassasalari nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnomalar, ekspert baholash, test, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish mazmuni o'qitishni rivojlantiruvchi kreativ qobiliyat, mustaqil ishlash ko'nikmasi, amaliy faoliyat tajribasi kabi omillarni tasniflash hamda ta'lim metodlari va vositalarini talabalarning lingvokognitiv strategiyalariga muvofiqlashtirish orqali boyitilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda individual ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlari talabalar bilim va ko'nikmalarini differensiasiyalash orqali shaxsga yo'naltirilganlik hamda fanlararo integratsiya tamoyillariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

ingliz tili fanini o'qitish jarayonida individual ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyati talabalarning "intellektual qobiliyat"iga tayanish va "kuchsiz" tomonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kollaborativ harakatlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlovchi tamoyillarini aniqlash orqali boyitilgan;

nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda individuallashtirishning didaktik ta'minoti talabalarning til bilish va o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishning taksonomik bosqichlariga muvofiq topshiriqlarni neyrolingvistik modullashtirish asosida takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tadqiqot natijasida talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga doir nazariy-metodik yondashuvlar asosida fanning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilgan hamda ta'lim jarayoniga joriy qilingan;

nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish orqali intellektual yondashuv asosida ularning real bilish imkoniyatlarining didaktik ta'minoti takomillashtirilgan, "Methodology of teaching English through humor to mixed-ability learners" nomli uslubiy qo'llanma yaratilgan va amalda joriy qilingan.

aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar ingliz tilini o'rganishda talabalarda individual ta'limni qo'llash orqali intellektual qobiliyatni rivojlantirish samaradorligini oshirishga va fanni chuqur o'rganishga ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu metodikani amaliyotda nofilologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'limda ingliz tili fanini o'qitishda qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ingliz tili fani nazariyasi metodologiyasi hamda xorijiy ta'lim sohasidagi respublika va chet el olimlari shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi; keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish tasnifi aniqlanganligi, uning samaradorligini ta'minlovchi omillar ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilinganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan belgilanadi hamda amaliyotga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, oliy ta'lim nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda individuallashtirish texnologiyalaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalari nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish mazmuni o'qitishni rivojlantiruvchi kreativ qobiliyat, mustaqil ishlash ko'nikmasi, amaliy faoliyat tajribasi kabi omillarni tasniflash hamda ta'lim metodlari va vositalarini talabalarning lingvokognitiv strategiyalariga muvofiqlashtirishga oid tavsiyalar "English for non-philological specializations" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdagi 302-son buyrug'iga asosan berilgan 302-0857 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada falsafiy, psixologik, ilmiy-pedagogik, sosiologik, uslubiy adabiyotlar tahlili asosida nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning shart-sharoitlari va amaliyotdagi holatini o'rganish imkoni oshirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda individual ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlari talabalar bilim va ko'nikmalarini differensiasiyalash orqali shaxsga yo'naltirilganlik hamda fanlararo integratsiya tamoyillariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid takliflar AIF 2/20- "Shaxsga yo'naltirilgan innovasion texnologiyalar asosida texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali muhandislar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish" mavzusidagi xalqaro loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 26 dekabrdagi 02-07-4724/04-sonli dalolatnomasi). Natijada ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarining rivojlantiruvchi omillari va pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirishga sharoit yaratilgan.

ingliz tili fanini o'qitish jarayonida individual ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyati talabalarning "intellektual qobiliyat"iga tayanish va "kuchsiz" tomonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kollaborativ harakatlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlovchi tamoyillarini aniqlash orqali boyitishga oid tavsiyalar "English for non-philological specializations" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdagi 302-son buyrug'iga asosan berilgan 302-0857 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada oliy ta'limda ingliz tili fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talabalarning amaliy tajribasini shakllantirish uchun ta'limni individuallashtirishning tamoyillarini ishlab chiqish imkoni kengaytirilgan.

nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda individuallashtirishning didaktik ta'minoti talabalarning til bilish va o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishning taksonomik bosqichlariga muvofiq topshiriqlarni neyrolingvistik modullashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalaridan AIF 2/20- "Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali muhandislar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish" mavzusidagi xalqaro loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 26 dekabrdagi 02-07-4724/04-sonli dalolatnomasi). Natijada ingliz tili fanini o'qitishning innovasion metodlarini e'tiborga olgan holda ta'limni

individuallashtirish texnologiyalarini amaliyotga yo'naltirishni takomillashtirishga imkon yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 7 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchligi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**»ga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim sifati - bu ta'lim tizimini rivojlantirishning belgilovchi mezonlaridan biri bo'lib, bu talabalarning ma'lum bir ta'lim muassasasida olgan bilimlari darajasidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro malaka talablari asosidagi ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan milliy tizimi yaratildi. 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilib, «Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish» muhim vazifa sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur vazifalarni amalga oshirishda ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish, ushbu sohada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Individual ta'lim – ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarining inobatga olinishini ta'minlabgina qolmay, barcha talabalarning rivojlanishi uchungina emas, shu bilan birga jamoa negizida har bir talabaning rivojlanishi, shaxs va mutaxassis sifatida kamol topishi uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Mohiyatiga ko'ra individual ta'lim har bir talabaning individual xususiyatlarining to'la inobatga olinishi uchun o'qitish shakllari, metodlari va vositalarini samarali tanlagan holda o'qitish jarayonini tashkil etilishini, har bir talabaga individual

yondashishni ta'minlovchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik hamda tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlarini belgilashga qaratilgan faoliyat mazmunini yoritishni anglatadi. Anglanganidek, o'quv jarayonini individual tashkil etishga bo'lgan yondashuv hamda o'qitishning individual shakli so'z yuritilayotgan ta'limning ustuvor jihatlari sanaladi.

Individual ta'lim maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalardan iborat dinamik tizimga ega. Ayni vaqtda ushbu ta'limning quyidagi turlari mavjud:

- repetitorlik ta'limi (lot. "repetitor" – "orqaga qaytishni talab qiluvchi", "takrorlovchi")- individual ta'limning eng ommalashgan zamonaviy turi;

- maxsus dasturga asoslangan ta'lim;

- o'rgatuvchi ta'lim;

- insonparvarlik ta'limi;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;

- o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim;

- ijodiy xarakterga ega ta'lim.

O'zining konseptiv asoslariga ko'ra individual ta'lim quyidagi tamoyillarga tayanadi.

Individual ta'limning ustuvor tamoyillari:

- talabanning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish;

- o'quv fanlari asoslarini o'zlashtira olmaslikning oldini olish uchun har bir talaba tomonidan o'quv dasturlarini bajarishda individuallashtirish vositalaridan foydalanish;

- har bir talabada uning yaqin kelajakda rivojlantirishi uchun tayanch bo'ladigan umumiy ta'limiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish va ularda bilishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish;

- talabalarda mustaqillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, fikrlash va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish.

Individual ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi aniq maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etadi. Shuningdek, talabalarni muayyan bilimlar sohasini egallashga yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini xolis baholash imkonini beradi.

Shu bois individual ta'lim texnologiyalaridan o'qitish jarayonida foydalanish natijasida:

-talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;

-ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;

-har bir talabanning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

-o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;

-talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;

-talabalarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;

-talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;

-talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili bo'yicha muloqotni o'rgatish maqsad qilib qo'yiladigan amaliy mashg'ulotlarida ta'lim jarayonini individuallashtirish hozirgi zamon ingliz tilini o'qitish metodikasida ustuvor yo'nalish sifatida tan olinayotgan individual - kommunikativ yondashuvning quyidagi konseptual tamoyillari orqali amalga oshiriladi:

1. Mashg'ulotni rejalashtirishda nutq faoliyatining barcha turlarini muayyan bir nutq mavzusi bo'yicha tuziladigan, o'zaro fikr almashuviga asoslangan, talabalarning nutq ehtiyojlariga va nutq vaziyatiga mos keladigan individual topshiriqlar orqali tashkil qilish;

2. Individual topshiriqlarni tushuntirish va o'zlashtirish jarayonida talaffuz, leksik, grammatik, so'zlashuv, tinglab tushunish, o'qib tushunish ko'nikma va malakalarini kompleks shakllantirish va takomillashtirish;

3. Har bir individual topshiriqni tushuntirish, mustahkamlash jarayonida ko'p martalik takror tamoyiliga rioya qilish;

4. Topshiriqlarni tushuntirish, mustahkamlash jarayonida har bir so'z va jumlaning tarjimasiz tushunilishiga yordam beradigan, talabalarning barcha sezgilariga faol ta'sir qiluvchi audio-vizual, ekstralingvistik, emotsional ta'sir vositalaridan kompleks foydalanish;

5. Individual topshiriqni bajarishda o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan interfaol usullarda: juft va guruh bo'lib ishlash kabi yangi pedagogik texnologiyalar asosida funktsionallikni ta'minlab tashkil qilish;

6. Juft va guruh bo'lib ishlab topshiriqni mustahkamlashda har bir talabaning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

7. Mavzu bo'yicha muloqot topshirig'ini tayyorlashda uning kommunikativ vaziyatlarga bog'liqligini, talabalarning fikr almashuv ehtiyojlariga mosligini, qiziqarliligini, yangiligini ta'minlash;

8. O'rganilgan individual topshiriqlarni dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtlarda o'quv laboratoriyasida va o'zga vazifani bajarish kabi shakllarda uch bora mustahkamlanishiga erishish;

9. O'rganiladigan individual topshiriqning mazmun-ma'nosini ongli o'zlashtirilishiga erishish;

10. Muloqot jarayonida talabalarning intellektual, axloqiy, emotsional rivojlanishini ta'minlash;

11. Muloqot jarayonida individual topshiriqni har bir talaba tomonidan qanday o'zlashtirganlik darajasini hisobga olib borish;

12. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini, ya'ni muloqotga kirisha olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish

Pedagogik jarayonda talabalarga individual va differensial yondashuv shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, chunki aynan shunday yondashuv yoshlardagi iqtidor va qobiliyatni ko'ra bilish, shaxs rivojlanishiga sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Bosqichlik differensiya texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi har bir talabani o'zining imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida o'qitish bo'lib, natijada har bir ta'lim oluvchi o'z iqtidoriga ko'ra bilim olish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish (qo'llay olish) imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'limda individual yondashuv bu talabalarni bir-biriga taqqoslash emas, balki har bir talabaning o'quv-biluv jarayonida, hayot yo'lining turli bosqichlarida

taqqoslashlan iboratdir. Harakatlanish xususiyatlariga qarab farqlanishlar har qanday teng sharoitlarda individning umumiy faolligi, uning harakatchanligi va emotsionalligiga qarab yuz beradi. Talabalikdan ulardagi individual farqlar ma'lum bo'la boshlaydi. Bu farqlar ularning xulq-atvori va faoliyatining turli shakllarida ko'rinadi. Ta'limda individual yondashuv talabaning psixik holati, qiziqishi, yashash va o'qish sharoitlarini hisobga olgan holda uni amalga oshirishni talab etadi. Demak, individuallik talabalarning o'ziga xosligini, uning boshqalardan farqini ifodalovchi hislatlari majmuidir

Tadqiqotning ikkinchi bobini **“Nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan bo'lib, unda nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning mazmuni, ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirishning innovatsion texnologiyalari hamda auditoriyadan tashqari ta'lim muhitida ta'limni individuallashtirishning interfaol metodlari bayon etilgan.

Hozirgi kunda ingliz tili butun dunyoda aloqa markaziga aylangani shubhasizdir. Darhaqiqat, bu ko'plab mamlakatlarda ingliz tili chet tili sifatida o'qitilishining sabablaridan biridir, jumladan oliy ta'lim kabi ko'plab ta'lim sharoitida aloqa vositasiga aylangan. Bu talabalarga ilm-fan va texnologiyadagi so'nggi yutuqlar va o'zgarishlarni davom ettirishga yordam berish uchun o'rgatilgan.

Oliy ta'limda ingliz tili fanini individuallashtirilgan ta'lim asosida tashkil etishda o'quv jarayonining xususiyatlari va talablarining bilish faoliyatini qamrab oladi, talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi masalalariga katta ahamiyat berish lozim. Talabalarning faol ijodiy bilish faoliyati, ularning mustaqil ishlaridan iborat oliy ta'lim jarayoni ikki guruh o'qitish metodlarining farqlanishini taqozo qiladi: o'qitish metodlari va o'rganish metodlari.

O'qitish metodlari bilimlarni berish usullari sifatida qaraladi va talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratilgan bo'ladi, hamda o'quv jarayonida olim pedagogning talablariga ta'sir ko'rsatishini shakllantiradi.

O'rganish metodlari bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab-chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

Oliy ta'limdagi ingliz tili fanining xususiyati ta'lim metodlarini belgilash va o'qitish shakllarini tashkil qilishni tavsiya etadi, ya'ni dars mashg'ulotlari jarayonida o'qitish metodlari va shakllari qo'shib ketadi, ya'ni oliy ta'limdagi dars berish metodi o'z navbatida o'qitishning tashkiliy shakli ham hisoblanadi.

Oliy ta'limda individuallashtirilgan ta'lim asosida fanni o'qitish va o'rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat:

1. Bilimlarni berish, idrok etish va o'zlashtirish, e'tiqodni shakllantirishni ta'minlovchi metodlar. Metodlarning bu guruhiga ma'ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil bilim olish bo'yicha ishlar, ta'lim jarayonlarini kuzatish, maslahatlar, ko'rsatma berish, ommaviy axborot, dasturlashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tadbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlari, dasturlashtirilgan mashg'ulotlar kiradi.

3. Bilimlar e'tiqodlarni shakllantirish, talabalarning kasbiy tayorgarligini aniqlash metodlari. Bu o'quv jarayonining baholash, kollokviumlar, suhbat o'tkazish, kurs va diplom ishlari, loyihalari va davlat atestatsiyalari natijalarini baholashdir.

Birinchi guruhga bilimlarni idrok qilish va o'zlashtirish, ikkinchi guruhga - tadbiq etish, mustahkamlash, uchinchi guruhga – yakuniy nazoratlar misol bo'ladi.

Oliy ta'limdagi individuallashtirilgan o'qitish metodlari talablari quyidagilar:

- metodlar tizimi ta'limiy funksiyaga ega bo'lishi lozim. Bu aniq maqsadlar va o'qitish vazifalarga erishishning eng qulay usulidir;

- metodlar tizimi tarbiyalovchi funksiyaga ega bo'lishi lozim. Bunda talabalarning mustaqil ishlari, vazifalari, ularning ishga ijodiy yondashuv hal qilinadi, talabalarning shaxsiy sifatlari, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan ehtiyojlari shakllanadi, ularning diqqati, irodasi, hissiyoti, xotirasi o'sadi.


Didaktikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlarining quyidagi bog'liqliklari qayd qilinadi: birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga; uchinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga; to'rtinchi, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga; beshinchidan, oliy ta'limning sharoitlariga va o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minotiga; oltinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi, o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Talabalarning o'quv faoliyatini individuallashtirish jarayonining tuzilishi sub'ekt va ob'ektning mavjudligini nazarda tutadi; aniq belgilangan maqsad; maqsadga javob beradigan individualashtirish (o'quv faoliyati) mazmuni; amalga oshirish usullari va shakllari; talabalarni individuallashtirish jarayonining samaradorligiga ta'sir qiluvchi kutilayotgan natijalar va shartlar asosida belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqotimiz davomida ingliz tili fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv faoliyatini individuallashtirish modelini ishlab chiqdik (2.3.4-rasm).

O'quv faoliyatini individuallashtirishning barcha elementlari o'zaro bog'langan va yagona jarayonni ifodalaydi. Ular orasida etakchi ob'ekt (menejerlar, o'qituvchilar va boshqalar) va ob'ekt (talabalar) hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv faoliyatini individuallashtirish birinchi navbatda dars mashg'ulotlarida individual xususiyatlarni hisobga oladi. Didaktikada individual yondashuv prinsipi talabaning o'quv faoliyatiga ta'sir qiladigan va uning natijalari bog'liq bo'lgan xususiyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Bular turli xil jismoniy fazilatlar, xarakter xususiyatlari va irodasi, motivatsiyasi, qobiliyatlari, sezgi va butun organizmning doimiy yoki vaqtinchalik nuqsonlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, talabalarning ijodiy faoliyatiga turli xil ijtimoiy omillar, shu jumladan hozirgi hayotning o'ziga xos xususiyatlari va talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan belgilanadigan omillar ta'sir qiladi.



2.3.4--rasm. Ingliz tili fanini o'qitish jarayonida talabalar o'quv faoliyatini individuallashtirish modeli

Bularning barchasi va boshqa ko'plab ichki va tashqi omillar o'quv jarayoniga u yoki bu darajada ta'sir qiladi. Shunday qilib, o'quv jarayonida qarama - qarshilik paydo bo'ladi: bir tomondan, talabalar ko'plab individual xususiyatlarini

hisobga olish zarurati mavjud, boshqa tomondan-bu ehtiyojni oliy ta'limda amalga oshirish imkoniyatlari juda cheklangan. Ushbu ziddiyatni hal qilish uchun talabalarning o'quv faoliyatini individuallashtirishdan foydalanish kerak.

Oliy ta'limdagi o'quv jarayoni tajribasi shuni ko'rsatadiki, individual yondashuvning ikki turini ajratish kerak:

- 1) turli xil xususiyatlar majmuasini hisobga olgan holda;
- 2) har qanday o'ziga xos xususiyatni hisobga olgan holda.

Ushbu muammo bo'yicha aksariyat asarlarda mualliflar bilim, ko'nikma va bilim qobiliyatlari darajasi ustun bo'lgan majmuadan kelib chiqadilar. Ba'zi mualliflar talabani aqliy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan fazilatlarni, masalan, asab tizimining xususiyatlariga asoslangan individual o'quv uslubini shakllantirishni asos qilib oldilar.

Bugungi kunda, aksariyat mutaxassislarining fikriga ko'ra, umuman o'quv faoliyatini individuallashtirish talabalarning o'quv jarayonining sifati eng ko'p bog'liq bo'lgan xususiyatlarini (masalan, qobiliyatlarni) hisobga olish kerak; bir xil yoshdagi talabalarning o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgaruvchanligi, unga nisbatan ta'limning individualligini shakllantirishdir.

O'quv faoliyatini individuallashtirish shartli ravishda umuman ta'lim vositasi sifatida ham, burch va mas'uliyat hissini tarbiyalash vositasi sifatida ham qaralishi mumkin. Individuallashtirish maqsadi talabani yanada rivojlantirish, noyob qobiliyatni ifodalaydigan shaxsni tarbiyalashdir.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish”** nomli uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari bayon etilgan.

Tadqiqot ishida o'rganilayotgan muammoning amaliyotdagi mavjud holatini o'rganish, olingan dalillarni tahlil etish, tegishli xulosalarga kelish va shu asosda muammoning umumiy holatiga baho berishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatni amalga oshirish alohida o'rin tutadi.

Nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida ana shu yondashuv asosida amaliy faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisobladik va tajriba-sinov maydonlarida amalga oshiriluvchi dastlabki va istiqboldagi ishlarni samarali tashkil etishga harakat qildik. Dastlabki – asoslovchi tajriba ishlari muayyan dastur asosida olib borildi.

Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish sohasida tashkil etilgan amaliy faoliyat uchun ob'ekt (tajriba maydoni) sifatida Buxoro, Samarqand, Termiz davlat universitetlari tanlandi. Mazkur ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning 442 nafari tajriba-sinov ishlari uchun respondent etib belgilandi va ular maqsadli ravishda 216/226 nafar tarzida tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirishning mavjud darajasini o'rganish maqsadida respondent-talabalarning e'tiboriga anketa so'rovlari va test savollarini havola etdik.

